



**“O‘zbekiston ipotekani qayta
moliyalashtirish kompaniyasi”**

Kuzatuv Kengashining
2025 yil 28 avgustdagi
majlisi qarori bilan
“TASDIQLANGAN”

“O‘zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati

USTAVI

Toshkent – 2025y.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Ustav O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va tegishli qonun hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

1.2. "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati (jamiyat), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 maydagi PF-5715-sonli "Ipoteka krediti bozorini rivojlantirish va kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 14 oktyabrdagi 868-sonli "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatining faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan 2019 yil 4 noyabrda tashkil etilgan.

1.3. Jamiyatning huquqiy holati, tashkiliy tuzilmasi, huquq va majburiyatlari, shuningdek aksiyadorlarning huquq va majburiyatlari mazkur Ustav, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy-huquqiy hujjatlari va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida aniqlanadi.

1.4. Jamiyatning davlat tilidagi firma nomi (kirill yozuvida):

- Jamiyatning to'liq firma nomi: "Ўзбекистон ипотекани қайта молиялаштириш компанияси" акциядорлик жамияти;

- Jamiyatning qisqartirilgan firma nomi: "ЎЗИҚМК" АЖ.

Jamiyatning davlat tilidagi firma nomi (lotin yozuvida):

- Jamiyatning to'liq firma nomi: "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati;

- Jamiyatning qisqartirilgan firma nomi: "O'zIQMK" AJ.

Jamiyatning rus tilidagi firma nomi:

- Jamiyatning to'liq firma nomi: Акционерное общество «Компания по рефинансированию ипотеки Узбекистана»;

- Jamiyatning qisqartirilgan firma nomi: АО «УзКПИ».

Jamiyatning ingliz tilidagi firma nomi:

- Jamiyatning to'liq firma nomi: Joint-Stock Company "Mortgage Refinancing Company of Uzbekistan";

- Jamiyatning qisqartirilgan firma nomi: JSC "UzMRC".

Jamiyatning manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temur shoh ko'chasi, 107B-uy, Xalqaro hamkorlik markazi, 14 qavat, A blok.

Jamiyatning elektron pochta manzili: info@uzmrc.uz

2. JAMIYATNING HUQUQIY HOLATI VA JAVOBGARLIGI

2.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, Jamiyat alohida yuridik shaxs hisoblanib, o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan mol-mulkka egalik qiladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, o'z zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2.2. Jamiyat o'rnatilgan tartibda yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Jamiyat nomuayyan muddatga tashkil etilgan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tegishli tartibda ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi sifatida ro'yxatga olingan.

2.3. Jamiyat qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida

va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir.

2.4. Jamiyat o'z mol-mulkiga mulk huquqi asosida egalik qiladi va uning mol-mulki aksiyalar, asosiy vositalar va aylanma mablag'larni joylashtirishdan hosil bo'lgan mablag'lar, ko'char va ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar, yig'ilgan daromadlar va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa usullarda olingan mol-mulkdan tashkil topadi.

2.5. Jamiyat o'zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o'z timsoliga (logotip), shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alamatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqli.

2.6. Jamiyat mahalliy va xorijiy mutaxassislarni ishga qabul qilish va ularga to'lanadigan haq va mukofot puli miqdorlarini mustaqil belgilash huquqiga ega.

2.7. Jamiyat o'z ta'sis hujjatlarida belgilangan maqsadlarga erishish va vazifalarini bajarish uchun O'zbekiston Respublikasida va undan tashqarida qonunchilik bilan o'rnatilgan tartibda boshqa yuridik shaxslarning muassisi bo'lishga yoki ularning ustav fondida (ustav kapitalida) boshqacha tarzda ishtirok etishga, vakolatxonalar va filiallar tuzishga haqlidir.

2.8. Jamiyat o'z sho'ba xo'jalik jamiyatlari majburiyatlari uchun javobgar bo'lmaydi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

2.9. Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

2.10. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi majburiyatlari hamda o'z aksiyadorlari majburiyatlari yuzasidan javobgar emas.

2.11. Aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarning o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.

2.12. Aksiyalarning haqini to'liq to'lamagan aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi.

2.13. Jamiyat uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan aksiyador jamiyat muayyan harakatni amalga oshirishi oqibatida bankrot bo'lishini oldindan bila turib, ushbu huquqidan jamiyat tomonidan shunday harakat amalga oshirilishi uchun foydalangan taqdirdagina jamiyatning bankrotligi aksiyadorning harakatlari tufayli yuzaga kelgan deb hisoblanadi.

3. JAMIYATNING MAQSADI VA FAOLIYAT DOIRASI

3.1. Jamiyat tijorat tashkiloti bo'lib, faoliyatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- banklarga (keyingi o'rinda "**dastlabki ipoteka krediti beruvchilari**") deb ataladi) ular tomonidan berilgan yoki beriladigan ipoteka kreditlariga moliyaviy mablag'lar taqdim etish;
- banklar tomonidan berilgan ipoteka kreditlari bo'yicha talab qilish huquqini olish;
- pul mablag'larini banklar tomonidan chiqarilgan ipoteka qimmatli qog'ozlariga joylashtirish;
- ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish bilan bog'liq maslahat va axborot xizmatlarini ko'rsatish;
- xizmatlarni masofadan turib (elektron xizmatlar) ko'rsatish, O'zbekiston

Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlarini, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini va ularning qarz qimmatli qog'ozlarini sotib olish, bo'sh pul mablag'larini bankka omonatlar (depozitlar) sifatida kiritish.

3.2. Jamiyatning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- mahalliy va xalqaro kapital bozorlarida moliyaviy resurslarni, shu jumladan xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining (keyingi o'rinlarda - XMI va XHMT) mablag'larini jalb qilish va keyinchalik ularni ipoteka kreditlarini moliyalashtirish va qayta moliyalashtirishga yo'naltirish;

- aholining arzon uy-joylarga ehtiyojini qanoatlantirish uchun bozor tamoyillari asosida tijorat banklariga moliyaviy resurslar taqdim etish;

- shu jumladan ipoteka qimmatli qog'ozlarini chiqarish va ularni investorlar orasida joylashtirish;

- ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirishga ko'maklashish, ipoteka bozorini rivojlantirishning zamonaviy uslublari va vositalarini tatbiq etish orqali ipoteka krediti va ipoteka qimmatli qog'ozlar bozorida xatarlarni kamaytirish va likvidlikni oshirish;

- ipoteka krediti qayta moliyalashtirish sohasida, shu jumladan xorijiy ekspert va mutaxassislarni jalb qilgan holda metodologik va normativ-huquqiy bazasini ishlab chiqishda ishtirok etish.

3.3. Jamiyat o'zi tomonidan o'rnatilgan talablarga javob beruvchi dastlabki ipoteka krediti beruvchilarini moliyalashtiradi va qayta moliyalashtiradi.

3.4. Jamiyat o'z faoliyatini quyidagi mablag'lar hisobidan moliyalashtiradi:

- o'z mablag'lari;
- banklarning kreditlari;
- grantlar;
- o'z ishtirokchilaridan (aksiyadorlaridan) jalb etilgan qarz mablag'lari;
- korporativ obligatsiyalarni joylashtirishdan olingan mablag'lar;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining hamda davlat jamg'armalarining mablag'lari;

- xalqaro moliya institutlarining, chet el hukumat moliya tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarning, shu jumladan chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining qarz mablag'lari;

- yuridik shaxslardan, shu jumladan chet el yuridik shaxslaridan olingan qarz mablag'lari;

- ipoteka qimmatli qog'ozlarini joylashtirishdan olingan mablag'lar;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

3.5. Jamiyat tomonidan qayta moliyalashtirilish uchun dastlabki ipoteka krediti beruvchilari o'z ipoteka kreditlari¹ bo'yicha talab qilish huquqini Jamiyat tomonidan o'rnatilgan shartlarda Jamiyat foydasiga garovga qo'yishlari shart.

3.6. Jamiyat tomonidan qayta moliyalashtirilgan kreditlar ushbu qayta moliyalashtirishni qaytarilishini ta'minlash vositasi hisoblanadi. Mazkur kreditlar bo'yicha tavakkalchilik dastlabki ipoteka krediti beruvchilari zimmasida bo'ladi. Jamiyatning qayta moliyalash kreditlari Jamiyatning kredit siyosatida belgilangan boshqa likvid vositalar bilan

¹ Bank va boshqa kredit tashkilotlari tomonidan jismoniy shaxslarga uy joy sotib olish va/yoki ta'mirlash uchun ajratilgan kreditlar nazarda tutiladi

ham ta'minlanishi mumkin.

3.7. Dastlabki ipoteka krediti beruvchilari ipoteka krediti shartlarini Jamiyat foydasiga lozim darajada bajarishlarini ta'minlaydi.

3.8. Jamiyat minoritar aksiyadorlarni (ishtirokchilarni) ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan hollarda himoya qilishning samarali mexanizmlarini yaratadi, shu jumladan yetkazilgan zararni qoplash choralari ishlab chiqadi.

3.9. Jamiyat qonunchilik bilan ta'qiqlanmagan ipoteka kreditlarini qayta moliyalashning boshqa shakllari va usullarini ham qo'llashi mumkin.

3.10. Jamiyat quyidagilarga haqli emas:

- bevosita ishlab chiqarish, sug'urta, shuningdek savdo faoliyatini amalga oshirishga va ushbu Qonunda nazarda tutilmagan boshqa faoliyatni amalga oshirishga;
- jismoniy va yuridik shaxslardan omonatlarni (depozitlarni) jalb etishga;
- jismoniy shaxs bo'lgan ishtirokchilardan (aksiyadorlardan) ustav fondiga (ustav kapitaliga) kiritilgan hissa summasidan yoki ularning egaligidagi aksiyalarning nominal qiymatidan oshadigan miqdorda qarz mablag'larini jalb etishga, bundan obligatsiyalar shaklidagi qarz mablag'larini jalb etish mustasno;
- insayderlik ma'lumotlari asosida bitimlar tuzish.

4. JAMIYATNING USTAV KAPITALI

4.1. Jamiyatning ustav kapitali aksiyadorlar sotib olgan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi.

4.2. Jamiyatning ustav kapitali miqdori 1 396 226 571 000 (bir trillion uch yuz to'qson olti milliard ikki yuz yigirma olti million besh yuz yetmish bir ming) so'mni tashkil qiladi va har birining nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan 1 396 226 571 (bir milliard uch yuz to'qson olti million ikki yuz yigirma olti ming besh yuz yetmish bir) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalardan iborat.

4.3. Jamiyat qo'shimcha ravishda har birining nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan 103 773 429 (bir yuz uch million yetti yuz yetmish uch ming to'rt yuz yigirma to'qqiz) dona oddiy aksiyalarni joylashtirishi mumkin (e'lon qilingan aksiyalar). Qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar ochiq yoki yopiq obuna usullari bilan joylashtirilishi mumkin.

4.4. Jamiyat ustav kapitalining miqdori:

- Jamiyat tomonidan chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatini ko'paytirish yoki qo'shimcha aksiyalar chiqarish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin;
- qo'shimcha chiqarilayotgan aksiyalar ochiq va yopiq obuna usullari bilan joylashtiriladi.
- chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish, shuningdek Jamiyat tomonidan aksiyalarning olish va bekor qilish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

4.5. Jamiyat ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi qaror Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

4.6. Jamiyat tomonidan qo'shimcha aksiyalar chiqarilayotganda, Jamiyat aksiyadorlari Jamiyat ustav kapitalidagi aksiyalar miqdoriga mos ravishda qo'shimcha aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqqa egalar. Imtiyozli huquqni qo'llash muddati 10 kun.

4.7. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz

beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda ularni imtiyozli olish huquqiga ega.

4.8. Qo'shimcha aksiyalar faqat pul mablag'lari orqali to'lanadi.

4.9. Jamiyat ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi qaror Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

4.10. Agar ustav kapitalini kamaytirish natijasida uning miqdori qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdordan kamayib ketsa, Jamiyat ustav kapitalini kamaytirishga haqli emas.

4.11. Ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilgan vaqtda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav kapitalni kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

5. JAMIYAT AKSIYALARINING TURLARI

5.1. Jamiyat faqat oddiy aksiyalar chiqaradi va har bir aksiya hujjatsiz shaklda hisobga olinadi. Aksiyalarga egalik huquqi depo-hisob varag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

5.2. Dividendlar Jamiyatning Jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi.

5.3. Jamiyat tomonidan aksiya bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiya egalariining dividendlarni olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi va ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga qarab mutanosib ravishda taqsimlanadi.

5.4. Dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud Jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

5.5. Oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Jamiyat kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

6. JAMIYATNING ZAXIRA FONDI

6.1. Jamiyat o'z sof foydasi hisobidan zaxira fondini tashkil qiladi.

6.2. Jamiyatning zaxira fondi, boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, uning zararlari o'rnini qoplash, korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish va aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi. Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

6.3. Jamiyat o'z ustav kapitalining 15 foiz miqdorda zaxira fondini tashkil etadi. Zaxira fondiga belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yili sof foydadan 5 foiz miqdorida ajratmalar o'tkazadi.

6.4. Zaxira fondi to'laligicha yoki qisman sarflanib bo'lgan hollarida, sof foydadan majburiy ajratmalardan tiklanadi.

7. JAMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI

7.1. Jamiyat boshqaruv organlari quyidagilardan iborat:

- Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi;
- Kuzatuv kengashi;
- Ijroiya organi (Bosh ijrochi direktor)

8. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHI

8.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning oliy boshqaruv organidir.

8.2. Jamiyat har yili aksiyadorlarning yillik (navbatdagi) umumiy yig'ilishini o'tkazishi shart. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi, qoida tariqasida, moliyaviy yil tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay, 1 iyulgacha o'tkazilishi shart. Jamiyat aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi har yili Jamiyat yuridik ro'yxatdan o'tgan manzilda, kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq belgilangan boshqa manzilda yoki video-konferens aloqa rejimida o'tkaziladi.

8.3. Jamiyatning bir foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibi, foydani taqsimlash, boshqaruv va nazorat organi a'zolariga ularning nomzodini (umumiy yig'ilish o'tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko'rsatish yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega. Bunday takliflar moliya yili tugaganidan keyin 90 kundan kechiktirmay taqdim etilishi lozim.

8.4. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida quyidagi masalalar ko'riladi:

- kuzatuv kengashi a'zolarini saylash (vakolat muddati tugagan yillarda);
- Jamiyat moliyaviy hisobotlari, auditorlar va xodimlarni hisobotlarini eshitish;
- kuzatuv kengashi va ijroiya organining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari;
- foyda va zararlarini taqsimlash;
- Jamiyat kuzatuv kengashining hisobotini eshitish;
- Jamiyat faoliyatiga bog'liq boshqa masalalar.

8.5. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin to'qson kundan kechiktirmay, aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Jamiyat kuzatuv kengashiga uning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli.

8.6. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

8.7. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlari kuzatuv kengashi tashabbusiga ko'ra, shuningdek yozma talab topshirilgan sanada Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining besh foizdan kam bo'lmagan qismiga egalik qiluvchi aksiyadorlarning yozma talabiga ko'ra o'tkaziladi. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlari kuzatuv kengashi qaroriga asosan chaqiriladi.

8.8. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish uchun talab qabul qilingan sanadan e'tiboran 10 kun ichida kuzatuv kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida yig'ilish vaqti, joyi va kun tartibi ko'rsatilgan qaror qabul qiladi. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish muddati, tegishli talab qabul qilingan sanadan e'tiboran 30 kundan oshishi mumkin emas.

8.9. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi xabar Jamiyatning rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida (Korporativ axborot yagona portali - www.openinfo.uzda) e'lon qilinadi va yig'ilish o'tkaziladigan kundan kamida 21 kun oldin aksiyadorlarga pochta orqali jo'natiladi.

8.10. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini kuzatuv kengashining raisi va u uzrli sabablarga ko'ra qatnasha olmagan taqdirda, kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi.

8.11. Agar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tish

yakunlanayotgan vaqtda Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining umumiy ellik foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (yoki ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsalar, mazkur aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tegishli tartibda o'tkazilgan hisoblanadi (kvorum mavjud hisoblanadi). Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum mavjud bo'lmasa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi keyinga qoldiriladi va uning vaqti e'lon qilinadi.

8.12. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Har bir aksiyador har qanday vaqtda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan vakilini almashtirishi yoki shaxsan o'zi ishtirok etishi mumkin.

8.13. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish "bitta ovoz beruvchi aksiya – bitta ovoz" tamoyiliga asosan amalga oshiriladi.

8.14. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovozga qo'yilgan masala yuzasidan qaror qabul qilish, qonunchilikda boshqa tartib nazarda tutilmagan bo'lsa yig'ilishda ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiya egalariining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

8.15. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash (Jamiyat ustav kapitalini ko'paytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar bundan mustasno);

- Jamiyatni qayta tashkil etish;

- Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

- kuzatuv kengashining son tarkibini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

- Jamiyatning ustav kapitalini kamaytirish;

- Jamiyatning joylashtirilgan aksiyalarini qaytarib sotib olish;

- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;

- Jamiyatning yillik hisobotini, shuningdek Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

- Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;

- Jamiyat kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan, Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini eshitish;

- imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 35-moddasida va mazkur Ustavda nazarda tutilgan qarorlar qabul qilish;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;

- aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

- majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8-bobiga asosan balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari

miqdorining (Jamiyat sof aktivlari miqdori qaror qabul qilinayotgan sanadan oldingi hisobot sanasiga tuzilgan moliyaviy hisobot bo'yicha aniqlanadi) ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

- Jamiyat Bosh Ijrochi direktori Jamiyatning joriy xo'jalik faoliyatiga doir affillangan shaxslar bilan bitimlar va yirik bitimlarni mustaqil ravishda tuzishi uchun Jamiyatning joriy xo'jalik bitimlarini aniqlash;

- "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobiga asosan Jamiyatning affillangan shaxsi bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

- sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash;

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisobot beruvchi Jamiyat boshqaruv va nazorat organlari hisobotlari shakli va mazmuniga bo'lgan talablarni, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi davomiyligini belgilash;

- Jamiyat aksiyalari (ulushlari) beradigan huquqlarning o'zgarishi bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish;

- Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

8.16. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari bayonnomalari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tugagan kundan e'tiboran 10 kun ichida ikki nusxada tuziladi. Har ikki nusxa ham aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi raisi va kotibi tomonidan imzolanadi.

8.17. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori qonunchilikda nazarda tutilgan muddatlarda Jamiyat korporativ veb-saytida va Korporativ axborot yagona portali - www.openinfo.uzda e'lon qilinadi. Jamiyat aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari Respublika Fond Birjasining kotirovka ro'yxatiga kiritilgan taqdirda, mazkur qarorlar Fond Birjasining rasmiy veb-saytida ham e'lon qilinadi.

8.18. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi nizomga binoan chaqiriladi va o'tkaziladi.

9. KUZATUV KENGASHI

9.1. Jamiyat kuzatuv kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatiga taalluqli masalalar bundan mustasno.

9.2. Jamiyat kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga hisobdordir.

9.3. Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan uch yillik muddatga saylanadilar.

9.4. Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolarining soni 7 kishidan iborat (kuzatuv kengashi raisi bilan birga). Bunda, kuzatuv kengashi mustaqil a'zolari soni 3 kishini tashkil qiladi.

9.5. Quyidagilar kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin emas:

- so'nggi uch yil ichida Jamiyatda va (yoki) Jamiyatning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs;

- Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining besh yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi (to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) affillangan shaxslar orqali) aksiyador;

- Jamiyatning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijozi va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan shaxs. Bunda qaysi shaxslar bilan bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'sha shaxslar yirik mijozi va yirik yetkazib beruvchi

deb e'tirof etiladi;

- so'ngi uch yil ichida Jamiyatga va (yoki) Jamiyatning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;

- ketma-ket olti yil davomida Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga kirgan shaxs;

- Jamiyat va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lgan shaxs, bundan Kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlar mustasno;

- Jamiyatning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'ngi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomondan qarindoshi (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, o'g'illari, qizlari, eri (xotini), shuningdek erining (xotinining) ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) bo'lgan shaxs;

- davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lgan shaxs;

- Jamiyatning ustavida yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari bilan tasdiqlangan hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan shaxs.

9.6. Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan mustaqil a'zolarining reyestrini yuritadi va uni o'z rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

9.7. Jamiyat kuzatuv kengashi mustaqil a'zolarining reyestrini yuritish tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

9.8. Jamiyat kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi kuzatuv kengashining boshqa a'zolari bilan bir qatorda ushbu Ustavda belgilangan teng huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ladi.

9.9. Kuzatuv kengashi vakolatiga quyidagi masalalar kiradi:

- Jamiyatning yillik biznes-rejasi ko'rsatkichlari bajarilishi, shuningdek, rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

- Jamiyat o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni amalga oshirishda yordam berish maqsadida kuzatuv kengashi tarkibida Audit qo'mitasini, Tavakkalchilikni boshqarish qo'mitasini, Nomzodlik va mukofotlash qo'mitalarini tashkil etish, mazkur qo'mitalarning vakolat doirasini tasdiqlash, shu jumladan tegishli qo'mitalar raislarini tayinlash;

- Jamiyatning biznes va kapital rejalarini, Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarini, jumladan Mol-mulk menejmenti, Budjet menejmenti, Kredit va moliyaviy menejment, Tavakkalchilik menejmenti, Inson resurslari va Axborot texnologiyalari menejmenti bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash;

- kreditlarni qayta moliyalashtirish uchun yakka tartibdagi banklarga beriladigan maksimal kredit limitlarini belgilashda ishlatiladigan parametrlarni va tavakkalchilik limitlarini tasdiqlash;

- Jamiyatning yillik budjeti va moliyaviy kutilmalarini belgilash;

- Jamiyatning Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan talablarga mos keluvchi samarali ichki nazorat tizimiga ega ekanligini ta'minlash;

- Jamiyatning tavakkalchilikni boshqaruv siyosatini, tavakkalchilikka moyillik va tavakkalchilik strategiyasini tasdiqlashni o'z ichiga oluvchi Tavakkalchilik menejmenti tizimi shakllantirilganligini ta'minlash;

- tavakkalchilikni aniqlash, baholash, boshqarish va nazorat qilish bo'yicha metodologiyani tasdiqlash;
- Jamiyatning bosh ijrochi direktorini tayinlash uning vakolat doirasi va xizmat majburiyatlarini belgilash va faoliyatini yillik asosda baholash;
- bosh ijrochi direktor tavsiyasiga asosan bosh ijrochi direktor o'rinbosarlarini tayinlash. Bosh ijrochi direktor o'rinbosarlari bo'yicha tavsiyalar kuzatuv kengashiga taqdim etiladi;
- Jamiyatning tashkiliy tuzilmasi bo'yicha aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tavsiyalar kiritish;
- Jamiyat samarador va shaffof tashkiliy tuzilmaga ega ekanligini ta'minlash;
- tashqi auditorlarni tayinlash va ularning haqlarini belgilash to'g'risida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tavsiyalar kiritish;
- auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyatning moliyaviy hisobotlari o'z vaqtida va to'liq topshirilishini ta'minlash;
- bosh ijrochi direktor va bosh ijrochi direktor o'rinbosarlari uchun hisobdorlik talablarini, shu jumladan hisobot turlari va ularning davriyligini belgilash;
- bosh ijrochi direktor tomonidan ilgari surilgan yirik korporativ maqsadlar, siyosatlar, budjet va strategik masalalarni ko'rib chiqish va tasdiqlash;
- zaruriyatdan kelib chiqib, korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;
- aksiyadorlar oldida hisobdor bo'lish;
- aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;
- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash, o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;
- Jamiyat mol-mulkining bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;
- filiallarni tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;
- bosh ijrochi direktorga to'lanadigan ish haqini belgilash;
- sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish (ular aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyati shakllarida tuziladi);
- Qonunda belgilangan hollarda Jamiyat tomonidan yirik bitimlar va Jamiyat affillangan shaxslari bilan (manfaatdorlik) bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyat tomonidan obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyat tomonidan chiqarilgan obligatsiyalarni qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Jamiyat tomonidan xayriya va homiylik mablag'lari miqdori, tartibi, shartlari bo'yicha qaror qabul qilish;
- e'lon qilingan aksiyalar miqdorida Jamiyatning ustav kapitalini ko'paytirish

to'g'risidagi qaror qabul qilish va ustavga bu bilan bog'liq qo'shimcha va o'zgartirishlarni kiritish;

- kuzatuv kengashi qoshida kuzatuv kengashi, ijroiya organi a'zolari, Jamiyat xodimlari va jalb etilgan ekspertlar (tegishli soha mutaxassislari)dan iborat tegishli masalalar, shu jumladan, nizoli vaziyatlarni aniqlash va hal etish va boshqa masalalar bo'yicha qo'mitalar (ishchi guruhlar) tashkil etish;

- Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

9.10. Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqlidir. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Jamiyat kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

9.11. Kuzatuv kengashining raisi kengash a'zolari tomonidan ularning o'zlari orasidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Kuzatuv kengashi o'z raisini jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.

9.12. Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi.

9.13. Kuzatuv kengashi raisi yo'q bo'lgan hollarda uning vazifasini kengash a'zolaridan biri amalga oshiradi.

9.14. Kuzatuv kengashi majlislari uning raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi va o'tkaziladi. Jamiyatning 1 foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalari kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish va kun tartibi yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega.

9.15. Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolari yetmish besh foizi kuzatuv kengashi yig'ilishlarini o'tkazish uchun kворumni tashkil qiladi.

9.16. Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda kengashning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini kengashning boshqa a'zosi berishiga haqli emas. Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan holda, kengash raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

9.17. Majlisda kuzatuv kengashi a'zolari video va audio uskunalar orqali konferensiya aloqasi bo'yicha ishtirok etishi mumkin, bunda ularning ovozlari qaror qabul qilish uchun sirdan berilgan deb hisoblanmaydi.

9.18. Kuzatuv kengashi yig'ilishi bayonnomalari yig'ilish kotibi tomonidan tayyorlanadi va har bir yig'ilishdan keyin 5 ish kunidan kech bo'lmagan muddatda kengash a'zolariga jo'natiladi.

9.19. Kuzatuv kengashi va uning raisi o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim. Ular qonun hujjatlariga va ushbu ustavga muvofiq Jamiyat va uning aksiyadorlari oldida javobgardir.

9.20. Kuzatuv kengashi mazkur Ustav va Jamiyat "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizomi asosida ish olib boradi.

9.21. Kuzatuv kengashi faoliyatiga quyidagi qo'mitalar yordam beradi:

- Audit qo'mitasi;
- Tavakkalchilikni boshqarish qo'mitasi;
- Nomzodlik va mukofotlash qo'mitasi.

10. IJROIYA ORGANI (BOSH IJROCHI DIREKTOR)

10.1. Bosh ijrochi direktor Jamiyatning yagona ijroiya organi hisoblanadi va Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiradi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

10.2. Aksiyadorlarning vakili sifatida harakat qilayotgan Bosh ijrochi direktori yagona ijroiya organi saylash masalalari 60 yilcha ovoz berishga haqli emas. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Bosh ijrochi direktorning vakolatlari shartnoma bo'yicha tijorat tashkilotiga (ishonchli boshqaruvchiga) berilishi mumkin. Tuziladigan shartnomaning shartlari, agar Jamiyat Ustavida o'zgacha nazarda tutilmagan bo'lsa, Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

10.3. Bosh ijrochi direktor Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qiladi va Jamiyatni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat Ustavi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashining qarorlariga muvofiq boshqaradi.

10.4. Bosh ijrochi direktor Qonun va mazkur Ustavga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashi qarorlari bajarilishini tashkil etadi va ularga hisobot beradi.

10.5. Bosh ijrochi direktor kuzatuv kengashi tomonidan 3 yil muddatga tayinlanadi. U bilan mehnat shartnomasi Jamiyat nomidan kuzatuv kengashi raisi tomonidan imzolanadi va shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi.

10.6. Jamiyatning bosh ijrochi direktorini tayinlash to'g'risidagi qaror, chet ellik nomzodlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida qabul qilinadi.

10.7. Bosh ijrochi direktorga to'lanadigan haq miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan belgilangan davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlariga mos tarzda belgilanadi.

10.8. Bosh ijrochi direktorning vakolatiga quyidagi masalalar kiradi:

- Ustav va kuzatuv kengashi tomonidan belgilangan tarzda Jamiyatning faoliyatini yuritish;
- Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish va uning manfaatlarini himoya qilish;
- Jamiyat nomidan shartnomalarni imzolash;
- Kuzatuv kengashining talabi va ruxsatiga ko'ra uning ishida, ovoz berish huquqisiz ishtirok etish;
- Jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlash;
- Jamiyat shtat jadvalini tasdiqlash, xodimlarni ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomiga rioya qilishini ta'minlash;
- Jamiyatning tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi nizomlar, xodimlarning ish yo'riqnomalarini tasdiqlash;
- Jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni tasdiqlash;
- Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;
- Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno;
- Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlagan holda uning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etish;

- Jamiyatda buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etish va Jamiyat yillik hisobotini xalqaro moliya standartiga muvofiq tayyorlanishini ta'minlash;

- Jamiyat faoliyatiga doir ma'lumotlarni qonun hujjatlariga muvofiq oshkor qilish;

- Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumot va hisobotlarni aksiyadorlar, kreditorlar, investorlar va tegishli davlat organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash;

- Jamiyat arxivi ishini tashkil etish va undagi hujjatlar butligini ta'minlash;

- amaldagi qonun hujjatlariga hamda Jamiyat ichki hujjatlariga rioya qilish.

10.9. Bosh ijrochi direktor o'z vakolatlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishi lozim.

10.10. Minoritar aksiyador hujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va maxfiy axborotlar, tijorat sirlarini qo'llash yo'li bilan Jamiyat boshqaruv organi faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi lozim.

11. JAMIYAT FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

11.1. Jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati Jamiyatning kuzatuv kengashiga hisobdor bo'ladi.

11.2. Ichki audit xizmati Jamiyatning ijroiya organi, filiallari va vakolatxonalari (mavjud bo'lsa) tomonidan qonun hujjatlariga, Jamiyat ustaviga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshiradi, baholaydi va nazorat qiladi.

11.3. Ichki audit xizmati Jamiyatdagi ichki nazoratni, shu jumladan, 50 foizdan ziyod ulushi Jamiyatga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

11.4. Ichki audit xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

12. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

12.1. Jamiyatni qayta tashkil qilish amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

12.2. Jamiyatni qayta tashkil qilish qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shakllarida amalga oshirilishi mumkin. Jamiyatni qayta tashkil etilishi uning huquq va majburitlarini huquqiy vorisga o'tishiga olib keladi.

12.3. Jamiyat quyidagi hollarda tugatiladi:

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra;

- Markaziy bank tomonidan ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyalari ro'yxatidan chiqarilganda;

- sud tomonidan bankrot deb e'lon qilinganda.

12.4. Jamiyat ixtiyoriy ravishda tugatilgan taqdirda kuzatuv kengashi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining muhokamasiga tugatish va tugatish komissiyasini tayinlash to'g'risidagi qaror qabul qilish masalasini chiqaradi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyat tugatilishi va tugatish komissiyasini tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi. Tugatish

komissiyasi tayinlangan paytdan e'tiboran Jamiyat ishlarini boshqarish bo'yicha barcha vakolatlar unga o'tadi.

12.5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyalari ro'yxatidan chiqarish bilan bog'liq majburiy tugatish amaldagi qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

12.6. Jamiyat sud qaroriga ko'ra tugatilganda tugatish tartibi va tugatuvchini tayinlash amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

12.7. Agar tugatish tog'risida qaror qabul qilingan paytga kelib Jamiyat kreditorlar oldida majburiyatlarga ega bo'lmasa, uning mol-mulki qonunga muvofiq aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi.

12.8. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga tegishli yozuvni kiritgan paytdan e'tiboran Jamiyatni tugatish tamomlangan, Jamiyat esa faoliyatini tugatgan deb hisoblanadi.

13. YAKUNIY QOIDALAR

13.1. Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi va moliyaviy hisobot taqdim etishi shart.

13.2. Jamiyat qonunchilikda saqlanishi majburiy deb belgilangan barcha hujjatlarni saqlashi shart va ushbu hujjatlarni qonunchilikda belgilangan tartibda aksiyadorlarga taqdim qilishi va/yoki foydalanish imkoniyatini ta'minlashi shart.

13.3. Ustav bo'yicha kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar o'zaro kelishuv yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari va ushbu ustavga asosan hal qilinadi.

13.4. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ular tegishli ravishda sud orqali hal qilinadi.

13.5. Jamiyat aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi va o'z vakolatlari doirasida kuzatuv kengashi tomonidan Jamiyat Ustaviga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi.

13.6. Jamiyat Ustaviga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavi uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab, amaldagi qonunchilikda belgilangan hollarda esa O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xabardor etilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

13.7. Agar mazkur Ustavni biron bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to'xtatish uchun sabab bo'lmaydi.

13.8. Agar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida mazkur Ustavda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari qoidalari qo'llaniladi.

13.9. Jamiyatning ushbu Ustavi Davlat ro'yxatidan o'tkazilishi munosabati bilan, Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishining 2024-yil 25-sentyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan va Yunusobod tumani Davlat xizmatlari markazi tomonidan 2024-yil 2-oktyabrda 3111154-son bilan ro'yxatga olingan Jamiyat Ustavi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanadi.

**"O'zbekiston ipotekani qayta
moliyalashtirish kompaniyasi"
aksiyadorlik jamiyati
Bosh ijrochi direktori**



M.Farmanov